

Abdualil Narimanov ishga tiklandi

Joriy yil 18-yanvar kuni xs.uz (<https://xs.uz/uzkr/post/fanlar-akademiyasi-iqtidorli-olimni-nega-ishdan-boshatdi>) da e'lon qilingan maqolaga javoban O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi quyidagilarni ma'lum qiladi:

Abdualil Narimanov ishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi majburiy ijro byurosi Toshkent shahar Yashnobod tumani bo'limi ijro varaqasini Fanlar akademiyasiga taqdim qildi.

Unga ko'ra, A.Narimanovni FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti direktori lavozimiga ishga tiklash to'g'risida topshiriq berilgan.

Shu munosabat bilan, joriy yil 4-mart kuni Fanlar akademiyasi prezidentining tegishli buyrug'i qabul qilindi va A.Narimanov Institut direktorligi lavozimiga qayta ishga tiklandi.